

MAHALLA – MILLIY YUKSALISHNING STRATEGIK POYDEVORI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19189193>

Ergasheva Guzalxon Ergashaliyevna

Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi

“Amaliy fanlar va axborot texnologiyalari” kafedrası dotsenti v.v.b,

elektron pochta: guzalhonergaseva976@gmail.com, telefon: + 99899-721-22-71

Annotatsiya

Ushbu maqolada mahallaning obodligi Yangi O'zbekistonning poydevorini yanada baquvvat qilishi, bu ezgu maqsad yo'lida birlashish va mahallani chinakam xalqchil tuzilmaga aylantirish farovon kelajak va yuksak taraqqiyotning eng ishonchli kafolati haqida bayon qilingan.

Tayanch tushunchalar: *rivojlantirish, yuksaltirish, jamiyat, umummilliy, profilaktika, turmush, hudud, ko'kalamzor, muxit, ta'sir, taraqqiyot, mujassam*

Abstract

This article describes how the prosperity of the mahalla further strengthens the foundation of New Uzbekistan, and that uniting for this noble goal and transforming the mahalla into a truly people's organization is the most reliable guarantee of a prosperous future and high development.

Key words: *development, improvement, society, nationwide, prevention, life, territory, greenery, environment, impact, progress, embodiment*

Аннотация

В данной статье описывается, как процветание махалы еще больше укрепляет основы Нового Узбекистана, и что объединение ради этой благородной цели и превращение махалы в подлинно ориентированную на человека структуру является наиболее надежной гарантией процветающего будущего и высокого развития.

Ключевые слова: *развитие, улучшение, общество, общенациональный, профилактика, жизнь, территория, зелень, окружающая среда, воздействие, прогресс, воплощение*

2026 yil – Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili. Davlatchilik tariximizda inson qadrini ulug'lash, xalq bilan muloqot qilish va islohotlar samarasini har bir xonadonda his etish oliy maqsad etib belgilangan. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosi sifatida 2026-yilning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e'lon qilinishi Yangi O'zbekiston taraqqiyotida yangi davrni boshlab beradi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, “Mahalla – jamiyatning yuzi. Agar mahalla obod bo'lsa, butun mamlakat obod bo'ladi. Mahallada o'zgarish bo'lsa, demak, butun jamiyat o'zgaryapti”. Bu qaror zamirida davlat boshqaruvini bevosita xalqqa yaqinlashtirish, odamlarning dardu tashvishi bilan yashashdek oliy mas'uliyat mujassamdir. Murojaatnomada alohida urg'u berilgan xalq salomatligi masalasi 2026-yilda bevosita mahalla darajasidagi tibbiyot bilan uyg'unlashadi. Yurtboshimiz ilgari surgan “tibbiyotni aholiga yaqinlashtirish” g'oyasi asosida har bir mahallada profilaktika va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish yangi bosqichga ko'tariladi. Mahallalarda tibbiy punktlar faoliyatini takomillashtirish, tor doiradagi mutaxassislar ishtirokida tibbiy

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

ko'riklarni mahallaning o'zida tashkil etish orqali kasalliklarni erta aniqlash va sog'lom millat genofondini asrash choralari ko'riladi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Biz uchun eng katta boylik – bu, xalqimizning sog'lig'idir" va bu boylikni asrash mahalladan boshlanadi. Shu bilan birga, Murojaatnomada ekologik barqarorlik va "Yashil makon" umummilliy loyihasi ijrosi mahalla faollarining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilandi. 2026-yilda har bir mahalla o'zining "yashil hududi" va bog'lariga ega bo'lishi, atrof-muhitni muhofaza qilish madaniyati xonadonlardan boshlanishi jamiyatni yuksaltirishning muhim shartidir. Mahallabay tizimida ekologik nazorat kuchaytirilib, hududlarni chiqindilardan tozalash va ko'kalamzorlashtirish ishlari umumxalq harakatiga aylanadi. Bu nafaqat tabiatni asrash, balki aholining yashash sharoiti sifatini tubdan yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Yurtboshimiz aytganlaridek 2026-yilda yurtimizda ilk bor maktab o'quvchilari o'rtasida nufuzli xalqaro kimyo va informatika olimpiadalari, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar talabalari o'rtasida muhandislik yo'nalishlarida, Turkiy davlatlar texnikumlari o'quvchilari o'rtasida kasb yo'nalishlarida xalqaro olimpiadalar o'tkaziladi. Ushbu musobaqalarda ham farzandlarimiz munosib ishtirok etadi, deb ishonaman dedilar. Biz o'zgarishlarni kutib yashamaymiz, aksincha, ularni o'zimiz, o'z aql-zakovatimiz va mas'uliyatli mehnatimiz bilan yaratamiz. onishmand bobolarimizning "Birlashgan – o'zar, birlashmagan – to'zar", degan hikmatli maqoli bor. Chindan ham, qarang, kimki birlashdi – hayotda o'zdi, g'alabaga erishdi. Kimki birlashmadi – to'zib, yo'q bo'lib ketdi. Bugungi kunda minglab iqtidorli yoshlarimiz IT va sun'iy intellekt bo'yicha izlanish olib bormoqda. Ularning kvant, dron, robototexnika kabi yo'nalishlardagi konstruktorlik loyihalarini amaliyotga tatbiq qilish uchun Raqamli texnologiyalar markazi tashkil etilishi haqida alohida ta'kidladilar.

Tarix davomida qanday og'ir sinovlarga duch kelmaylik, biz avvalo birdamlikdan kuch oldik. Mashaqqatli kunlarda odamlarimiz, mahalla ahli yelkadosh bo'lib qiyinchiliklarni yenggan. Oila – oilaga, qo'shni – qo'shniga ko'mak berib yashagan. Biz mana shunday o'ta noyob qadriyatimizga doimo sodiq qolishimiz, yosh avlodimizni ayni shu ruhda tarbiyalashimiz kerak.

Jamiyatni yuksaltirish haqida gap ketganda, Murojaatnomada alohida qayd etilgan ayollar baxti va raqamli texnologiyalarni joriy etish masalasi 2026-yil dasturining o'zagini tashkil etadi. Yurtboshimiz aytganlaridek, "Ayolni rozi qilsak, oila rozi bo'ladi, oila rozi bo'lsa — jamiyat rozi bo'ladi". Mahallalarda "Ayollar daftari" orqali manzilli ko'mak berish bilan birga, "Raqamli mahalla" loyihasi doirasida barcha ijtimoiy xizmatlar onlayn shaklga o'tkaziladi. Bu esa har bir fuqaroga davlat xizmatlaridan o'z mahallasida, ortiqcha ovoragarchiliklarsiz foydalanish imkonini beradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, 2026 yil — Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili Murojaatnomada belgilangan "Inson qadri uchun" tamoyilining amaliy ifodasi bo'ladi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Mahalla tizimini rivojlantirish — bu kelajagimizni rivojlantirish demakdir". Mahallaning obodligi, undagi tibbiy va ekologik muhitning barqarorligi Yangi O'zbekistonning poydevorini yanada baquvvat qiladi. Bu ezgu maqsad yo'lida birlashish va mahallani chinakam xalqchil tuzilmaga aylantirish farovon kelajak va yuksak taraqqiyotning eng ishonchli kafolatidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. (2025-yil 26-dekabr).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022- 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli asari

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlashtirish barpo etamiz" nomli asari

5. Ш.Мирзиёев - 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Харакатлар стратегиясини Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йўлида амалга оширишга оид давлат дастури